

«NEO INSURANCE CORP» AJ

**«MINI-KASKO» TRANSPORT
VOSITALARINI IXTIYORIY TAKOFUL
SUG'URTA QILISH QOIDALARI**

Mahsulot kodi: 44-T

Toshkent, 2024 yil

2024 yil __ iyundagi
__-n-son Buyrug'iga
ilova

**«TASDIQLAYMAN»
«NEO INSURANCE CORP» AJ
Bosh direktori J. Shirinov**

«__» _____ 2024 yil

Q O I D A L A R I

1-BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ishtirokchilar Takoful operatoriga mablag'larni, biror ishtirokchiga zarar yetganda uni qoplab berish maqsadida tashkil etilgan zaxiralarga yo'naltirish uchun to'laydilar.

1.2. Ushbu «MINI-KASKO» transport vositalarini ixtiyoriy Takoful sug'urta qilish qoidalarini (bundan buyon matnda Sug'urta qoidalarini deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq «NEO INSURANCE CORP» AJ (bundan buyon matnda Takoful operatori deb yuritiladi) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular «MINI-KASKO» sug'urta mahsuloti bo'yicha transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.3. Takoful sug'urtasi (bundan buyon matnda sug'urta deb yuritiladi) takoful operatorining Takoful darchasi faoliyati to'g'risidagi siyosati (Takoful siyosati)ga muvofiq amaldagi Qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Ushbu qoidalar bilan istalgan vaqtda Takoful operatorining rasmiy veb-saytida tanishish mumkin bo'ladi.

1.4. Ishtirokchi Takoful sug'urta badalini (takoful sug'urta badalini) to'laydi va takoful sug'urta badalini qonun hujjatlariga hamda Takoful siyosatiga muvofiq sug'urta zaxirasini (takoful fondini) shakllantirishga yo'naltirishga rozi bo'ladi.

1.5. Takoful operatori Qonunchilik va Takoful siyosatiga muvofiq takoful sug'urtasi uchun olingan badallar hisobidan sug'urta zaxiralari (takoful fondini) shakllantiradi. Takoful operatori takoful sug'urtasi uchun to'langan badalning sug'urta zaxiralari (takoful fondi) ulushini ishtirokchiga polis muddatidan oldin tugatilgan yoki muddati tugagan taqdirda, Takoful siyosatiga muvofiq takoful sug'urtasi badalining qaytarish miqdorini aniqlash uchun uning hisobini yuritadi.

1.6. Ishtirokchi ushbu qoidalarga muvofiq o'z majburiyatlarini bajargan taqdirda, ushbu qoidalarga va Takoful siyosatiga muvofiq tovon olish huquqiga ega bo'ladi.

1.7. Takoful operatori Takoful sug'urta badalining ma'lum qismini takoful operatorining Ekspert Kengashi tomonidan tasdiqlangan koeffitsientga muvofiq o'z daromadiga oladi. Har bir tomoni istalgan vaqtda Takoful operatorining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Ekspertlar Kengashining Nizomi bilan tanishish huquqiga ega.

1.8. Ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq Takoful operatori kelishilgan Takoful sug'urta badali sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, sug'urta qilingan transport vositasiga yetkazilgan zararni Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladi.

Bunda transport vositasi (bundan buyon matnda TV deb yuritiladi) ostida ishlab chiqaruvchi korxona butlanishida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan yengil avtomobillar tushuniladi.

1.9. Ushbu Sug'urta qoidalarining shartlariga ko'ra taksi xizmatlarini taqdim etish maqsadlarida foydalaniladigan, prokatga, ijaraga topshiriladigan, test-drayv, musobaqalar uchun foydalaniladigan TV, shuningdek har qanday toifadagi, ishlab chiqarilgan sanasidan e'tiboran 15 (o'n besh) yildan ortiq vaqt o'tgan TV sug'urtaga qabul qilinmaydi va Kompaniya ularni sug'urta qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

2-BO'LIM. QO'LLANILADIGAN TUSHUNCHALAR

Ushbu Sug'urta qoidalarida quyidagi mazmundagi tushunchalardan foydalaniladi:

2.1. **Ishtirokchi** – Takoful operatori bilan ushbu Sug'urta qoidalarining shartlarida sug'urta shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli va huquq layoqatiga ega jismoniy shaxs.

2.2. **Naf oluvchi** – Sug'urta qilingan TV mulkdori yoki Sug'urta polisida ko'rsatilgan, qonunga, boshqa huquqiy hujjatga yoki shartnomaga asoslangan holda mol-mulk saqlanishida manfaatga ega bo'lgan boshqa shaxs.

2.3. **Sug'urta polisi** – Ishtirokchi va Takoful operatori o'rtasida ushbu Sug'urta qoidalarining shartlarida sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisi shaklining namunasi ushbu Sug'urta qoidalarining 2-ilovasida keltirilgan. Sug'urta polisi elektron ko'rinishda bo'lishi mumkin va Ishtirokchiga u Takoful sug'urta badalini to'liq hajmda to'laganidan keyin beriladi.

2.4. **Sug'urta davri** – Sug'urta polisida ko'rsatilgan, Takoful operatorida sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari amal qiladigan vaqt davri. Sug'urta davri Takoful sug'urta badali to'langandan keyin keladigan kundan e'tiboran boshlanadi va Sug'urta polisida ko'rsatilgan sanada tugaydi. Takoful operatori Sug'urta davri boshlanishiga qadar va u tugaganidan keyin mavjud bo'lgan TV ning shikastlanishiga javobgar bo'lmaydi.

2.5. **Sug'urta qilingan TV ni shikastlanishi** – sug'urta qilingan TV ga tashqaridan mexanik yoki jismoniy ta'sir natijasida uning alohida qismlari, detallari, bo'lmalari, agregatlarini shikastlanishi.

2.6. **Yo'l-transport hodisasi (bundan buyon matnda YTH deb yuritiladi)** – yo'lda TV harakatlanishi jarayonida sodir bo'lgan, fuqarolarning o'limi yuz bergan yoki ularning sog'lig'iga ziyon yetkazilgan, TV, inshootlar, yuklar shikastlangan yoki boshqa moddiy zarar yetkazilgan voqea.

2.7. **Sug'urtaning geografik hududi** – ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan sug'urtaning amal qilishi hududi. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan sug'urta O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi.

2.8. **Internet-resurs** – Internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida Takoful operatorining www.neoinsurance.uz, <https://agent.neoinsurance.uz> manzillari bo'yicha joylashtirilgan rasmiy sayti yoki Takoful operatori tomonidan tegishli bitim asosida jalb qilingan tashkilotning (sug'urta agentining) rasmiy sayti. Internet-resursdan faqat ushbu Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan shartlarda va yozib berilgan Sug'urta polisining haqiqiy ekanligini tekshirish shartlarida sug'urta shartnomasi tuzilganda (Sug'urta polisi realizatsiya qilinganida) foydalaniladi.

2.9. **Elektron sug'urta shartnomasi** – Takoful operatorining ma'lumotlar bazasi tomonidan berilgan sug'urta shartnomasining noyob raqami, u Sug'urta polisida ko'rsatiladi.

2.2. **Obuna** – ilgari kiritilgan ma'lumotlar asosida navbatdagi davr uchun yangi sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish maqsadida Takoful operatori tomonidan Ishtirokchilarga taqdim etiladigan servis xizmati.

2.3. **Shaxsiy kabinet** – bu Takoful operatori hamkorining internet-resursida Ishtirokchining faqat o'zi kira oladigan shaxsiy bo'limi. Ishtirokchi login va parol yordamida bu yerga har qanday qurilmadan kira olishi mumkin.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI (TAVAKKALCHILIKLARI)

3.1. Sug'urta qilingan TV ni YTH natijasida boshqa TV, ot-ulov arava, velosiped, moped, boshqa harakatlanish vositasi yoki yo'l harakati ishtirokchisi (piyoda yoki boshqa) bilan to'qnashishida uning shikastlanishi sug'urta hodisasi deb tan olinadi.

Bunda sug'urta hodisasini tan olish uchun sodir bo'lgan YTH vakolatli huquqni muhofaza qilish organlarining vakillari (ichki ishlar organlari Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy bo'linmalari xodimlari) tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi va rasmiylashtirilishi kerak.

4-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI

4.1. Sug'urta shartnomasi Takoful operatorining ichki hujjatiga ko'ra belgilangan formatdagi Ishtirokchining ariza-anketasi asosida tuziladi yoki Takoful operatorining/hamkorining internet-resursida tegishli shakl to'ldiriladi, Ishtirokchi ularda sug'urta ob'ekti to'g'risidagi aniq va to'liq ma'lumotlarni va elektron shaklga muvofiq boshqa kerakli axborotni ko'rsatishi shart. Sug'urta qilish uchun ariza-anketa sug'urta shartnomasining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

4.2. Sug'urta shartnomasi/polisi Ishtirokchi tomonidan u Takoful sug'urta badalini to'laganidan keyin qog'oz shaklda ham, elektron shaklda ham va Takoful operatori ushbu Sug'urta qoidalariga 1-ilovada keltirilgan shakl bo'yicha Sug'urta polisini rasmiylashtirishi yo'li bilan tuzilishi mumkin.

4.3. Takoful operatoriga taqdim etiladigan Ishtirokchi, Naf oluvchi va sug'urta qilingan TV haqidagi axborotning to'g'riligi yuzasidan javobgarlik Ishtirokchi zimmasida bo'ladi.

4.4. Ushbu Sug'urta qoidalar doirasida sug'urtaga qabul qilingan har bir TV uchun faqat bitta Sug'urta polisi rasmiylashtiriladi.

4.5. Sug'urta shartnomasi tuzilganida TV ni ko'zdan kechirish va fotosuratga tushirish talab qilinmaydi.

4.6. Sug'urta shartnomasi Takoful operatorining bankdagi hisobvarag'iga Takoful sug'urta badali kelib tushgan kundan keyingi kundan e'tiboran kuchga kiradi.

4.7. Internet-resursdan foydalangan holda sug'urta shartnomasi tuzilganda Ishtirokchi ushbu Sug'urta qoidalar bilan tanishganidan keyin Takoful sug'urta badalini to'laydi va bu bilan unga taklif qilingan shartlarda sug'urta shartnomasi tuzishga o'z roziligini tasdiqlaydi.

4.8. Ishtirokchining ushbu Sug'urta qoidalar va sug'urta shartnomasi shartlari bilan tanishganligi fakti Ishtirokchi tomonidan Internet-resursda elektron ko'rinishda qo'yiladigan maxsus bayroqchalar (tasdiqlar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin, shuningdek Ishtirokchining/Naf oluvchining sug'urta xizmatlarini elektron shaklda olish uchun zarur bo'lgan shaxsga oid ma'lumotlarni to'plashga va qayta ishlashga roziligini bildiradi.

4.9. Sug'urta shartnomasi elektron shaklda rasmiylashtirilgan taqdirda, Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan elektron pochta manziliga elektron xabar ko'rinishida yoki Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan mobil telefonning abonent raqamiga qisqa matnli xabarlar servisi (bundan keyin matnda SMS-xabar deb yuritiladi) vositasida bir martalik xabar ko'rinishida shartnoma tuzilganligi haqida bildirishnoma jo'natiladi. Bunda Ishtirokchida shaxsiy kabinetda tuzilgan sug'urta shartnomasi haqidagi axborotni ko'rish, bosmadan chiqarish imkoniyati mavjud. Shuningdek Ishtirokchi sug'urta shartnomasi bo'yicha axborotni www.neoinsurance.uz manzili bo'yicha Takoful operatorining internet resursida «Polisni tekshirish» bo'limida yoxud shaxsiy kabinetda tekshirish imkoniyatiga ham ega.

5-BO'LIM. SUG'URTA SUMMASI VA TAKOFUL SUG'URTA BADALI

5.1. Ushbu Sug'urta qoidalariga ko'ra sug'urta summasi mazkur Sug'urta qoidalariga 2-ilovada keltirilgan Jadvalda belgilangan limitlar doirasida oldindan belgilanadi va Sug'urta polisida ko'rsatiladi.

5.2. Takoful sug'urta badalining miqdori sug'urta dasturida ko'rsatilgan (1-ilova) va Sug'urta polisida ko'rsatiladi. Takoful sug'urta badali Sug'urta polisi berilishiga qadar Ishtirokchi tomonidan bir yo'la to'lov bilan to'lanishi kerak.

6-BO'LIM. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Ishtirokchi/Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Takoful operatoridan ushbu Sug'urta qoidalariga bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda bajarilishini talab qilish.

6.2. Ishtirokchi/Naf oluvchi quyidagilarni bajarishi shart:

a) ushbu Sug'urta qoidalariga doirasida sug'urta tovonini to'lash talabini Takoful operatoriga asoslab berishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasi yuz berganida, Takoful operatoriga bu haqda mazkur Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan har qanday usulda darhol xabar qilishi;

b) yuzaga kelgan vaziyatda ehtimoliy zarardan qutqarish, uni kamaytirish yoki uning oldini olish bo'yicha oqilona va amalga oshirish mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi. Bunday choralarni ko'ra turib, Ishtirokchi Takoful operatori ko'rsatmalariga, agar bunday ko'rsatmalar berilgan bo'lsa, shuningdek Sug'urta qilingan TV ni ishlab chiqargan korxona tavsiyalariga amal qilishi shart;

v) voqea sodir bo'lgan joyda shikastlangan TV ni to'rt tarafidan, shuningdek salon ichidan (agar salonda shikastlanishlar mavjud bo'lsa) foto/video suratga olishi;

g) ta'mirlash-tiklash ishlari boshlanishiga qadar, shikastlangan Sug'urtalangan TV ni ko'rikdan o'tkazish joyi, sanasi va vaqtini Takoful operatori bilan kelishib olishi;

d) agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan da'vo qilish muddatlari davomida qonun bo'yicha yoki ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq Ishtirokchining sug'urta tovoniga bo'lgan huquqidan to'liq yoki qisman mahrum qiladigan holatlar aniqlangan bo'lsa, olingan sug'urta tovonini Takoful operatoriga to'liq hajmda yoki ma'lum bir qismda qaytarishi shart.

6.3. Takoful operatori quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta tovonini to'lashni rad etish, agar:

- Ishtirokchi/Haydovchi sug'urta qilingan TV va/yoki sodir bo'lgan voqea yuzasidan bila turib yolg'on va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim qilgan bo'lsa;

- Ishtirokchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega boshqa shaxs ushbu Sug'urta qoidalariga bilan o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa;

b) Ishtirokchi tomonidan sug'urtaga taqdim qilinayotgan TV haqidagi ma'lumotlarni tekshirishi.

6.4. Takoful operatori quyidagilarni bajarishi shart:

a) Sug'urta polisini faqat Takoful sug'urta badali to'langanidan keyin berishi;

b) sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta tovonini ushbu Sug'urta qoidalarida belgilangan tartibda va muddatlarda to'lashi.

7-BO'LIM. SUG'URTA HODISASINI KO'RIB CHIQUISH

7.1. Sug'urta hodisasi yuz berganda, Ishtirokchi yoki Naf oluvchi quyidagilarni bajarishi shart:

- darhol bu haqda Takoful operatoriga har qanday mavjud usul va aloqa vositalari bilan (telefon orqali +99871 202-55-66 raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda, «NEO INSURANCE CORP» mobil ilovasi, elektron xat, faks va h.k orqali xabar yuborgan holda) xabar berishi;

- hodisa haqida vakolatli huquqni muhofaza qilish organlariga (YHXB, YoXB, IIB va boshqalarga) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda ariza berishi shart.

7.2. Sodir bo'lgan YTH haqidagi hujjatlar vakolatli huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan rasmiylashtirilganidan keyin, Ishtirokchi yoki Naf oluvchi Sug'urta qilingan TV da ta'mirlash-tiklash ishlari boshlanishiga qadar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) sug'urta polisining nusxasi;

b) yuz bergan hodisaning holatlarini tekshirishga vakolati bo'lgan tegishli organlardan hodisa sabablari va tafsilotlari ko'rsatilgan holda olingan materiallar (qaror, ayblov xulosasi, sud qarori yoki boshqalar);

v) sug'urta qilingan TV ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma (texnik pasport) nusxasi;

g) Takoful operatorining tanloviga ko'ra, sug'urta qilingan TV ni tiklash uchun zarur bo'lgan barcha ishlar ro'yxati, ehtiyot qismlar va materiallarni ko'rsatgan holda baholovchi tashkilot tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash uchun kal'kulyasiya/hisobotning asli.

Mazkur hujjatlarning 90 (to'qson) kun ichida taqdim etilmasligi Takoful operatoriga sug'urta hodisasini tan olmaslik va sug'urta to'vonini to'lashni rad etish huquqini beradi.

7.3. Takoful operatori o'z vaqtida xabardor qilinganida to'plangan materiallarga asoslangan holda sug'urta hodisasi yuz bergan kundan e'tiboran 3 (uch) kundan kechikmay sug'urta hodisasini tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi.

7.4. Takoful operatorida baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash uchun kal'kulyasiyaning/hisobotning to'g'riligi va asoslanganligiga nisbatan shubhalar yuzaga kelganda, Takoful operatori kal'kulyasiyaning/hisobotning haqqoniyligi va asoslanganligini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tekshirishni tashkil qilishga va sug'urta to'vonini to'lash masalasini ko'rib chiqish muddatini kal'kulyasiyani/hisobotni tekshirish muddatiga mutanosib ravishda uzaytirishga haqli.

7.5. Sug'urta hodisasi haqida o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, qaror sug'urta to'vonini to'lash haqidagi talab bilan murojaat qilingan va ushbu Sug'urta qoidalarining 7.2-bandida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan paytdan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida qabul qilinadi.

7.6. Takoful operatori tomonidan sug'urta hodisasi tan olingan taqdirda, Sug'urta hodisasi haqidagi dalolatnoma tuziladi, unda to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'vonini summasi belgilanadi.

7.7. Sug'urta hodisasi tan olinmagan taqdirda, Takoful operatorining sug'urta to'vonini to'lashni rad etish haqidagi qarori sug'urta to'vonini to'lash haqidagi talab bilan murojaat qilingan paytdan e'tiboran 15 (o'n besh) kundan kechikmay Ishtirokchiga/Naf oluvchiga yozma ravishda xabar qilinadi va u rad etish asoslantirilgan sabablarni ichiga olishi kerak.

8-BO'LIM. SUG'URTA TO'VONINI TO'LASH TARTIBI

8.1. Sug'urta hodisasi tan olinganidan keyin, sug'urta to'vonini ko'rilgan zarar miqdorida, ammo Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan holda belgilanadi.

8.2. Sug'urta qilingan TV shikastlanganda, Takoful operatori sug'urta to'vonini o'z tanloviga ko'ra baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash haqidagi hisobotga yoki baholash tashkiloti kal'kulyasiyasi/hisobotining haqqoniyligi va asoslanganligini tekshirgan ekspert xulosasiga (fikriga) binoan aniqlangan miqdorda pul mablag'lari bilan to'laydi.

8.3. Takoful operatori tomonidan sug'urta to'vonini Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan paytdan e'tiboran 3 (uch) kun ichida pul mablag'larini Naf oluvchining bankdagi hisob raqamiga (yoki uning yozma ko'rsatmasiga ko'ra Ishtirokchiga) o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

8.4. Takoful operatori tomonidan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni (ziyonni) qoplash uchun amalga oshirilgan har bir to'lov sug'urta pulini bunday to'lov summasiga kamaytiradi.

9-BO'LIM. POLISNI TUGATILISHI VA BEKOR QILINISHI

9.1. Polisning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda to'xtatiladi.

9.2. Polis Ishtirokchining yozma arizasiga binoan istalgan paytda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

9.3. Takoful sug'urta badalini to'liq/qisman qaytarish Ishtirokchi tomonidan Polis Takoful operatoriga qaytarilishi sharti bilan hisobvaraqqa (plastik kartaga, bankdagi hisobvaraqqa yoki talab qilib olinadigan hisobvaraqqa) pul mablag'larini bir yo'la o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Takoful fondining ortiqcha mablag'laridagi ishtirokchining ulushi takoful fondidagi ishtirokchining ulushiga mutanosib ravishda belgilanadi;
- takoful fondidagi ishtirokchining ulushi takoful sug'urta badalini to'lash kunidagi takoful fondidagi takoful sug'urta badalining (sug'urta mukofotlari) ulushini aniqlash yo'li bilan aniqlanadi. Agar takoful sug'urta badalini to'lash vaqtida Takoful fondi hajmi ko'rsatkichi nolga teng bo'lsa yoki manfiy (minus) natijaga ega bo'lsa, u holda ishtirokchining Takoful fondidagi ulushi nolga teng deb hisoblanadi;
- kelgusida takoful fondidagi ishtirokchining ulushi Takoful operatorining boshqa mijozlaridan tushgan tushumga va Takoful fondidan qilingan sug'urta to'lovlariga muvofiq mutanosib ravishda o'zgaradi;
- Agar biron bir uzoq muddatli texnik zaxirada ushbu shartnoma bo'yicha olingan takoful sug'urta badalining qoldig'i bo'lsa, ushbu qoldiq takoful sug'urta badalining qaytarilgan ulushi summasidan ushlab qolinadi va ishtirokchining ushbu texnik zaxiradagi ulushi nolga yetgandan so'ng, ushbu ulush ishtirokchiga qaytariladi.
- ushbu bandga muvofiq hisoblangan takoful sug'urta badalini qaytarish summasi ishtirokchiga ushbu shartnoma muddati o'tgan kalendar yili tugaganidan keyin 3 oy ichida to'lanadi.

10-BO'LIM. UMUMIY SHARTLAR

- 10.1. Taraflar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 10.2. Sug'urta natijasida qoplangan zararni yetkazilishiga javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan Ishtirokchining/Naf oluvchining talab qilish huquqi sug'urta tovonini to'lagan Takoful operatoriga u tomonidan to'langan summa doirasida o'tadi. Ishtirokchi Takoful operatoriga barcha hujjatlar va dalillarni berishi va Takoful operatoriga o'tgan talab qilish huquqini u tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni xabar qilishi shart.
- 10.3. Agar Ishtirokchi/Naf oluvchi Takoful operatori tomonidan qoplangan zararni yetkazilishiga javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechgan bo'lsa yoki mazkur huquqni Ishtirokchining/Naf oluvchining aybiga ko'ra amalga oshirish mumkin bo'lmasa, Takoful operatori sug'urta tovonini to'lashdan to'liq yoki tegishli qismida ozod qilinadi va ortiqcha to'langan tovon summasi qaytarilishini talab qilishga haqli bo'ladi.
- 10.4. Ushbu Sug'urta qoidalaridan kelib chiqqan barcha nizolar va kelishmovchiliklar taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal qilinadi, muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.



«MINI-KASKO»
TRANSPORT VOSITALARINI IXTIYORIY
TAKOFUL SUG'URTA QILISH

1-bet 11 betdan
08.11.2023 y.

«MINI-KASKO» transport vositalarini
ixtiyoriy Takoful sug'urta qilish qoidalariga
1-ilova

«MINI-KASKO» TAKOFUL SUG'URTA POLISINING
NAMUNASI

EMK 0000000



O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri,
Mirobod ko'chasi, 9A-uy
TEZKOR ALOQA LINIYASI: +99871 202-55-66

«MINI-KASKO» SUG'URTA POLISINING RAQAMI ____/44/____

Sug'urta polisi berilgan sana: ____ 20__ yil

1. Ishtirokchi: _____

Pasport ma'lumotlari: _____

Manzili va telefon: _____

2. Transport vositasi:

rusumi, modeli	_____	kuzov raqami va rangi	_____
chiqarilgan yili	_____	dvigatel raqami	_____
davlat ro'yxatidan	_____	hisobvaraqa-ma'lumotnoma raqami	_____
o'tkazilgan raqami	_____	tex. pasport raqami	_____

3. Sug'urta davri: 20__ йил «__» _____ дан 20__ йил «__» _____ racha

4. Sug'urta tavakkalchiliklari

4.1. TV ni YTH natijasida shikastlanishi:

Sug'urta summasi

--	--	--	--	--	--	--	--

Takoful sug'urta badali

--	--	--	--	--	--	--	--

«MINI-KASKO» transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalarini yuklab olish uchun iltimos, quyidagi havola bo'yicha o'ting:

www.neoinsurance.uz

«MINI-KASKO» transport vositalarini
ixtiyoriy Takoful sug'urta qilish qoidalariga
2-ilova

«MINI-KASKO» TRANSPORT VOSITALARINI IXTIYORIY TAKOFUL SUG'URTA QILISHGA OID
SUG'URTA DASTURI

	Sug'urta summasi	Takoful sug'urta badali	
		бир ойда	бир йилда
1	10 000 000 so'm	60 000,00 so'm	720 000,00 so'm
2	20 000 000 so'm	90 000,00 so'm	1 080 000,00 so'm
3	30 000 000 so'm	110 000,00 so'm	1 320 000,00 so'm